



UDK: 316.472.47(575.1)

**Nazokat ARTIKBAYEVA,**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti*

E-mail: [uzromedia11117@gmail.com](mailto:uzromedia11117@gmail.com)

*Sotsiologiya fanlari doktori A.Abdullayev taqrizi asosida*

## SOCIALIZATION OF INTERNET ADDICTION AMONG YOUTH IN UZBEKISTAN

Annotation

This article presents a sociological analysis of how internet usage influences the social life of youth in Uzbekistan. The internet is viewed as a social environment that facilitates personal connections, group participation, and community engagement. The study focuses on how online activity affects individuals' social roles, communication strategies, and their interaction with traditional institutions. The analysis draws on official statistics, national and international sources, and relevant sociological theories.

**Key words:** Internet, youth, socialization, group, communication, sociology.

## СОЦИАЛИЗАЦИЯ ИНТЕРНЕТ ЗАВИСИМОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье представлен социологический анализ изменений, происходящих в социальной жизни молодёжи Узбекистана под влиянием интернет-активности. Интернет рассматривается как социальная среда, способствующая установлению личных связей, вовлечению в группы и участию в общественной жизни. Особое внимание уделяется влиянию интернет-коммуникаций на социальный статус, поведенческие стратегии и отношения с традиционными институтами. Анализ основан на официальных данных, локальных и зарубежных источниках и современных социологических теориях.

**Ключевые слова:** Интернет, молодёжь, социализация, группа, общение, социология.

## O'ZBEKISTONDA YOSHLAR ORASIDA INTERNETGA QARAMLIKNING IJTIMOIIYLASHUVI

Аннотасија

Maqolada internetdan foydalanish orqali yoshlar ijtimoiy hayotida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar sosiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Internet yoshlar uchun shaxsiy aloqalar o'rnatish, guruhlariga qo'shilish, jamoaviy faollikda ishtirok etish imkonini beruvchi ijtimoiy muhit sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada internet faoliyati shaxsning ijtimoiy mavqeyi, muloqot strategiyasi va ijtimoiy institutlar bilan munosabatiga ta'siri nuqtai nazaridan baholangan. Tahlillar mahalliy va xalqaro manbalar, rasmiy statistik ma'lumotlar va ilmiy nazariyalarga tayangan holda olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** Internet, yoshlar, ijtimoiylashuv, guruh, muloqot, sotsiologiya.

**Kirish.** Inson sivilizatsiyasining raqamli bosqichga o'tishi nafaqat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda, balki ijtimoiy tuzilmalar va shaxslararo aloqalar tizimida ham tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Adabiyotlarda ko'pincha "internetga qaramlik" (ing. Internet addiction) tushunchasi orqali keltirilgan. Bu tushuncha ilk bor psixolog K. Yang (1998) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, internetdan nazoratsiz foydalanishning ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri asosida ko'rib chiqilgan [1]. Keyinchalik, mazkur atama klinik va nevrologik tadqiqotlarda ham qo'llanila boshlandi. Biroq so'nggi yillarda sosiologiya fanining o'zgaruvchan jamiyatni tahlil qilishdagi yondashuvlari "internetga qaramlik"ni faqat individual ruhiy muammo emas, balki ijtimoiy tizimdagi transformasiya deb qarashni taklif qilmoqda [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Manuel Kastells o'zining "Tarmoqlashgan jamiyat" (2000) asarida internetni zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi mustaqil platforma sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, internet shaxs va jamoa, shaxs va institut, hatto shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarni qayta shakllantiruvchi "infrastruktura" sifatida xizmat qilmoqda [3]. Yoshlar esa ushbu infrastrukturaning eng faol foydalanuvchilari sifatida maydonda ishtirok etmoqda.

Barri Uellman va Li Reyni 2012 yilda "networked individualism" nazariyasini ilgari surib, internet orqali shakllanayotgan aloqalar shaxsni an'anaviy ijtimoiy tuzilmalardan ajratib, uni mustaqil, lekin tarmoqlangan aloqa

subyektlariga aylantirishini ta'kidlaydi [4]. YA'ni, yoshlar endi muloqot uchun mahalla, sinfdosh, qo'shni yoki oila kabi mahalliy guruhlariga emas, balki raqamli platformalardagi guruhlariga tayana boshlamoqda. Bu jarayon "gibrid ijtimoiylashuv" degan atama bilan ham tushuntiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Internet yoshlar hayotida shunchalik markaziy o'rin egallamoqdaki, u an'anaviy ijtimoiy institutlar bilan raqobatchi emas, balki ularni to'ldiruvchi omilga aylana boshladi. Bu holatni ijtimoiylashuvning tabiiy evolyusiyasi deb ham baholash mumkin. YA'ni, yoshlar "yangi turdagi jamoa" – virtual jamoalar, "yangi uchrashuv joylari" – onlayn platformalar va "yangi ta'sir guruhlari" – influenserlar orqali ijtimoiy jarayonlarga moslashmoqda.

Internet faoliyati shaxsning ijtimoiy kapitalini ham qayta shakllantirmoqda. Mark Granovetterning "zaif aloqalar" nazariyasida ta'kidlanishicha, yuzaki, lekin keng qamrovli ijtimoiy munosabatlar shaxsga yangi imkoniyatlar, axborot va manbalarga etishni osonlashtiradi [5]. Internet esa aynan mana shu zaif aloqalarni kengaytiruvchi asosiy maydon hisoblanadi. Bir qarashda ahamiyatsiz tuyulgan "follower", "do'stlik so'rovi" yoki "layk" kabi funksiyalar yoshlar uchun ijtimoiy tan olish, guruhga kirish, hatto shaxsiy obro'ni belgilash vositasiga aylangan.

Bugungi internetdagi ishtirok "passiv foydalanuvchi" emas, balki faol ijtimoiy subyektning pozitsiyasini anglatadi. Yoshlar kontent yaratadi, bahs qiladi, fikr bildirib, jamoaviy sheriklikka kiradi. Bunday ijtimoiy faollikni qaramlik deb

baholashdan ko'ra, ijtimoiy resursdan foydalanish usuli sifatida ko'rish maqsadga muvofiq.

**Tahlil va natijalar.** Internet orqali ijtimoiylashuvning ommaviylashuvi sosiologiyada yangi tushunchalarning shakllanishiga ham olib keldi. Masalan, "sifrovaya sotsializatsiya" (raqamli ijtimoiylashuv), "onlayn identichnost" (onlayn shaxsiyat), "influyenser ta'siri" kabi atamalar internet faoliyatining ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini tahlil etish uchun ilmiy oborotga kiritildi [6].

Mahalliy tadqiqotchilar ham bu jarayonga e'tibor qarata boshladilar. Z. Bobomurodovning 2021 yilgi tadqiqotlarida talabalar orasida internetdagi faollik turlari, muloqot strategiyalari va shaxsiy ifodalar to'g'risida surunkali so'rovlar o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar internet orqali jamoaviy harakatlarda ishtirok etayotgani, o'z fikrini ommaviylashtirayotgani va real hayotda bera olmagan ijtimoiy qiymatlarni virtual muhitda amalga oshirayotgani aniqlangan [7].

Internet borasida "qaramlik" atamasi doimiy ravishda salbiy ma'noda ishlatilishi holatning bir yoqlama talqiniga olib kelmoqda. Amalda esa internet orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy faollik ko'pincha shaxsning faol sosial rollarini aks ettiradi. Demak, bu jarayonni ijtimoiy fanlarda yangicha qarash, ya'ni fenomenologik va konstruktivistik yondashuvlar orqali qayta tahlil qilish zarur.

Shaxsning raqamli muhitdagi ijtimoiy mavqeyini aniqlovchi omillar ham o'zgargan. Avval jismoniy muhitda maqom bilim, yosh, tajriba, jamiyatdagi rol kabi meyorlar bilan baholangan bo'lsa, hozir esa raqamli muhitda "obunachilar soni", "layklar", "videolarning tomosha qilinish soni", "trendlardagi ishtirok" kabi mezonlar ijtimoiy obro' o'lchovlariga aylanmoqda. Bu jarayon Burdening "simvolik kapital" tushunchasi bilan bog'liq holda ham izohlanadi [8].

Internet faoliyati, xususan ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirok – bu oddiy texnologiyadan foydalanish emas, balki shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini yaratish, tasdiqlash va saqlash uchun kurashidir. Demak, internet faoliyati orqali shakllanadigan ijtimoiylashuv, ijtimoiy raqobat, kuchlar o'yini va statuslar kurashining raqamli ko'rinishidir.

Kundalik hayotda internet yoshlar uchun boshqa ijtimoiy institutlarning funksiyalarini ham bajarib qo'yimoqda. Masalan:

Oila: shaxsiy munosabat va maslahat olish joyi sifatida  
Mehnat: onlayn daromad manbai (frilans, bloggerlik)

Ta'lim: axborot va bilim olish maydoni (onlayn kurslar, repetitorlik)

Jamoatchilik: fikr bildirish va muhokama ishtirokchisi sifatida

Maqolada internet faoliyati va ijtimoiylashuv jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni so'zsiz va xolis sosiologik nuqtai nazardan tahlil qilish maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqot metodologiyasida asosiy e'tibor turli nazariy yondashuvlar va rasmiy manbalar orqali masalaning jamiyatdagi ifodasini tahlil qilishga qaratiladi.

Maqola nazariy jihatdan quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayangan:

M. Kastellsning "tarmoqlashgan jamiyat" nazariyasi — internetning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini makro darajada izohlaydi [9];

B. Uellman va L. Reynining "tarmoqlangan individualizm" konsepsiyasi — shaxs va jamoa munosabatlarni raqamli muhitda ko'rib chiqadi [10];

M. Granovetterning "zaif aloqalar" nazariyasi — internetdagi yuzaki, ammo ta'sirli ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatini ko'rsatadi [11].

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Yoshlar ishlari agentligining rasmiy hisobotlari;

Ilmiy maqolalar, monografiyalar va sosiologik kuzatuvlar.

Maqolada kontent tahlil usuli orqali yoshlarning internetdagi faoliyati va uning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri kuzatildi.

O'zbekistonda internet faoliyati orqali yoshlarning shaxsiy, jamoaviy va institutsional darajadagi aloqalari kengayib, ijtimoiylashuvning zamonaviy shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu holat sosiologiyada internetni ijtimoiy muhit deb baholash zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalari** O'zbekistonda internet faoliyati va ijtimoiylashuv jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni bir qancha darajalarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

1. Shaxsiy darajada ijtimoiy aloqalarning transformasiyasi

Internet faoliyati yoshlar hayotida shaxsiy munosabatlarning asosiy vositasiga aylanmoqda. Internetning faqat axborot manbai emas, balki muloqot muhiti sifatidagi o'rnini ko'rsatadi.

Onlayn muloqot formatlari (chat, videoqo'ng'iroq, guruh muhokamalari) real hayotdagi shaxsiy aloqalarning bir qismini o'z ichiga olmoqda. Xususan, yoshlar o'z fikrini bildirish, shaxsiy ongini shakllantirish, his-tuyg'ularini ifoda etish uchun raqamli muhitdan faol foydalanmoqda. Internet faoliyati orqali amalga oshiriladigan aloqalar klassik muloqotga qaraganda tezkor, kam energiya talab qiluvchi va "filtrlangan" xarakterga ega bo'ladi. Bu esa yoshlar uchun ehtiyoqkor, ixtiyoriy ijtimoiy munosabatlar imkonini yaratadi.

2. Jamoaviy darajada guruh mansublikning qayta shakllanishi

Internetdagi jamoalar — Telegram, TikTok, Instagram orqali tashkil etilgan virtual guruhlar yoshlar uchun an'anaviy jamoalarga (mahalla, sinf, mahalliy doiralar) alternativa sifatida xizmat qilmoqda. Bu holat P. Burdening "simvolik kapital" tushunchasi orqali izohlanishi mumkin: internetdagi ishtirok, kontent yaratish va reaksiyalar jamiyatdagi mavqeni belgilaydigan ko'rsatkichga aylanmoqda [12].

Yoshlar real hayotda tan olinmasligi mumkin bo'lgan shaxsiy fazilatlarini internetda tan olinishi mumkin bo'lgan kontent va harakatlar orqali ifoda etmoqda. Bu ijtimoiy tan olishga nisbatan bo'lgan ehtiyojning raqamli qoplanishidir.

3. Ijtimoiy institutlar bilan aloqalardagi o'zgarish  
Internet faoliyati an'anaviy ijtimoiy institutlarning faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda:

Oila: maslahat, muhokama, emosiya almashinuvi internetga ko'chmoqda

Ta'lim: ma'lumot manbai sifatida bloggerlar, onlayn kurslar, forumlar ishlamoqda

- Mehnat: onlayn ishlash va pul topish vositasi sifatida bloggerlik, tarjimonlik, frilans kengaymoqda

4. Institutsional darajada ijtimoiy institutlarning raqamli transformasiyasi

Internet faoliyati yoshlarning an'anaviy ijtimoiy institutlar bilan munosabatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir faqat axborot manbasi sifatida emas, balki ijtimoiy institutlarning funksiyalarini qisman o'zlashtirish jarayoni sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim sohasida internet bloggerlar, influyenserlar, fanga oid YouTube kanallari, repetitorlik platformalari orqali an'anaviy ustoz-talaba munosabatlarga raqobatchi muhit yaratib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, texnik va gumanitar fanlarga oid qisqa formatdagi kontentlar (layfxak, tez o'rganish, video darslar) orqali namoyon bo'lmoqda.

Oila institutlari bilan munosabatda ham o'xshash jarayon kuzatilmogda. Psixologik, shaxsiy yoki maishiy masalalarda yoshlar ko'pincha ota-onadan yoki katta avlod vakillaridan emas, balki internetdagi "maslahat kanallari",

“forumlar” va blogerlarga murojaat qilishni afzal ko'rmoqdalar.

5. Raqamli ijtimoiy aloqalarning kengayishi va moslashuvchanligi

Yoshlar internet orqali nafaqat shaxsiy muloqotda, balki ijtimoiy, siyosiy va fuqarolik faolligida ham ishtirok etmoqda. Masalan, 2022 yilda faol tarqalgan “Ekomaktab”, “GreenAvlod”, “Adolatli imtihon” kabi onlayn harakatlarda yoshlarning ishtiroki yuqori bo'lgan. Telegram, Instagram, Facebook platformalaridagi guruhlar va fleshmoblar orqali bu kabi ijtimoiy mavzulardagi faollik ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalari** O'zbekistonda internetdan foydalanish yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Bu ta'sirni nafaqat shaxsiy yoki axborot iste'moli darajasida, balki ijtimoiy institutlar, jamoa tuzilmalari va umumiy madaniyat elementlari asosida tahlil qilish mumkin.

#### 1. Internet – ijtimoiy muhit sifatida

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, internet faoliyati faqat texnologiya emas, balki to'laonli ijtimoiy muhitga aylangan. Unda shaxs ijtimoiy rollarni sinab ko'radi, guruhlariga qo'shiladi, munosabatlar orqali tajriba orttiradi. Bu holat E.Giddensning “jamiyatning refleksiv modernizatsiyasi” nazariyasi bilan uyg'un: inson o'z hayotini doimiy tahlil va qayta shakllantirish orqali yashaydi [13].

Yoshlar internetda o'z shaxsini qayta shakllantirish, turli ijtimoiy guruhlarga kirib chiqish, “muvaqqat jamoa”larda ishtirok etish orqali o'zini izlaydi. Bu jarayonlarni Mark Granovetter ta'riflagan “zaif aloqalar” tizimiga kiritish mumkin, chunki ular doimiy emas, ammo ta'sirli va imkoniyat yaratuvchidir [14].

#### 2. Tarmoqlashgan shaxs va ijtimoiy kapital

Uellman va Reynining “tarmoqlangan individualizm” nazariyasi tahlil qilingan natijalarni to'liq tasdiqlaydi. Yoshlar shaxsiy ijtimoiy tarmoqlarini o'zlari kuradi: kim bilan, qaysi formatda, qancha vaqtda muloqot qilish – bularning barchasi shaxsiy tanlovga asoslanadi. Bu jarayon shaxsni ijtimoiylashuvning faol ishtirokchisiga aylantiradi [15].

Shu bilan birga, ijtimoiy kapital tushunchasi ham o'z mazmunini qayta shakllantirmoqda. A. Portes ta'kidlaganidek, ijtimoiy aloqa insonga axborot, qo'llab-quvvatlash va imkoniyat olish uchun xizmat qiladi [16]. Internetdagi “followerlar”, “do'stlar soni”, “obunachilar” bu ijtimoiy resurslardan foydalanish ko'lamini belgilaydi.

#### 3. Ijtimoiy institutlarning raqamli parallelligi

Yoshlar real hayotdagi an'anaviy institutlar bilan bir vaqtda raqamli institutlar bilan ham munosabat o'rnatmoqda.

### ADABIYOTLAR

1. Young K. S. Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder // *CyberPsychology & Behavior*. – 1998. – Vol. 1(3).
2. Гофуров Б. Рақамли ижтимоийлашув: замонавий ёндашувлар. – Т.: Фан, 2022. – 138 б.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 2000. – P. 21–26.
4. Wellman B., Rainie L. Networked: The New Social Operating System. – Boston: MIT Press, 2012. – P. 84–89.
5. Granovetter M. The Strength of Weak Ties // *American Journal of Sociology*. – 1973. – Vol. 78, No. 6. – P. 1360–1380.
6. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – NYU Press, 2006. – P. 124–130.
7. Бобомуродов З. Ўзбекистон ёшларининг рақамли коммуникациядаги ижтимоий ҳолати // *Социологик тадқиқотлар журнали*. – 2021. – №4.
8. 28–35 б.
9. Бурдые П. Символик капитал назарияси. – М.: Социум, 2004. – 74–78 б.
10. Кастеллс М. Тармоқлашган жамият. – М.: Аспект Пресс, 2000. – 56–61 б.
11. Уеллман Б., Рейни Л. Тармоқланган индивидуализм. – Бостон: MIT Press, 2012. – 84–89 б.
12. Грановеттер М. Юзакли алоқаларнинг кучи // *American Journal of Sociology*.
13. Бурдые П. Символик капитал назарияси. – М.: Социум, 2004. – 74–78 б.
14. Giddens A. Modernity and Self-Identity. – Stanford University Press, 1991. – P. 48–55.
15. Granovetter M. The Strength of Weak Ties. // *American Journal of Sociology*. – 1973. – Vol. 78, №6
16. Wellman B., Rainie L. Networked. – MIT Press, 2012. – P. 84–98.
17. Portes A. Social Capital: Its Origins and Applications in Modern Sociology. // *Annual Review of Sociology*. – 1998. – Vol. 24.

Ta'lim sohasida internet blogerlar, YouTube o'qituvchilari, onlayn platformalar real maktab va universitetlar bilan teng raqobatchiga aylangan. Oila bilan munosabatda esa maslahat markazlari, “internet doirasidagi kattalar” rolini bajaradigan blogerlar va “maslahat guruhlari” faollashgan.

Bunday parallellik ijtimoiy institutlarning raqobatchi emas, balki to'ldiruvchi turda shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonni “institusional gibridlashuv” sifatida baholash mumkin — an'anaviy institut va raqamli format o'zaro muvofiq holda mavjud bo'ladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tahlil va nazariy asoslardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Internet faoliyati zamonaviy yoshlarning ijtimoiylashuvida markaziy o'rin tutadi. Bu jarayon faqat axborot iste'moli emas, balki shaxsning ijtimoiy rollarini anglashi, jamoaga kirishi va ijtimoiy tan olinishga erishishida muhim vositaga aylangan.

Yoshlar ijtimoiy muhitini faqat an'anaviy institutlar emas, balki raqamli platformalar orqali ham shakllantirmoqda. Telegram, Instagram, YouTube kabi platformalardagi guruhlar yoshlar uchun yangi turdagi jamoaviy munosabat muhiti vazifasini bajarmoqda.

Raqamli ijtimoiylashuv yoshlarning faolligini oshirish bilan birga, raqamli ajrim va axborot tanlovida murakkabliklar keltirib chiqarmoqda. Yuzma-yuz muloqotning kamayishi, axborot manbalari ishonchining sustlashuvi va sun'iy munosabatlar — bu jarayonning salbiy oqibatlaridir.

An'anaviy va raqamli institutlar o'rtasida raqobat emas, balki gibridlashuv (o'zaro to'ldirish) jarayoni kechmoqda. Yoshlar real hayotdagi va internetdagi ijtimoiy institutlar bilan bir paytda munosabatda bo'lishni o'rganmoqda.

**Takliflar.** Raqamli sosiologiya sohasida mahalliy empirik tadqiqotlar soni oshirilishi zarur. Internet faoliyati va ijtimoiylashuvning milliy xususiyatlari aniqlanishi kerak.

Yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga joriy qilinishi kerak. Axborot tanlovi, axloqiy normalar, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi borasida bilim berish muhim.

Internetdagi faollikni ijtimoiy resurs sifatida baholash va qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratilishi lozim. Ayniqsa, yoshlar faol ishtirok etayotgan ijtimoiy loyihalar davlat va NNTlar tomonidan monitoring qilinishi zarur.

Raqamli muhitda teng imkoniyatlar yaratish uchun chekka hududlarda infratuzilmani yaxshilash choralari kuchaytirilishi lozim.